XALQ DEPUTATLARI XIVA SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

Xorazm viloyati, Xiva shahri, N.Kubro ko‘chasi, 27-uy,, +623 77 505 8, 220900

2026-yil 11-aprel VII-18-15-12-217-K/26 Xiva shahar

Xiva shahrida joriy yilda “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 2026-yil 14-fevraldagi DKQ 03-01/8-26-sonli qaroriga asosan, xalq deputatlari shahar Kengashi

Qaror qiladi

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risida”gi 387-sonli qarori 2-xatboshi “v”-bandida xalq deputatlari shahar Kengashlariga “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha belgilash vakolati berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2026-yil uchun Xiva shahri hududida “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlari **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i M.Atajanov, shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari D.Ishchanov, shahar soliq inspeksiyasi boshlig‘i N.Bobojonov bilan birgalikda mazkur qaror o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsinlar.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Erniyazov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **RAXIMOV ADILBEK ERKINOVICH**

Xalq deputatlari Xiva shahar
Kengashining
2026-yil 11-apreldagi
VII-18-15-12-217-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Xiva shahri hududida “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘im stavkalari

T/r	**Yig‘im turi**	**Bir oyga chegaralangan stavkalar (so‘mda)**		
		Bazaviy stavka (O‘RQ-1105 25.12.2025 *9-ilova)*	**Qo‘llanilgan koeffitsiyent (1,2 gacha)**	**2026-yil uchun yig‘im stavkasi**
1	“Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	600 000	1,2	720 000
2	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	300 000	1,2	360 000